



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMUY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

AMALIY TARJIMA

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish kursi yo'naliishi: O'zbek-engliz tarjima
nazariyasi va amaliyoti**



**ALISHER
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTTI UNIVERSITETI**

Toshkent – 2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

U.Yo‘ldoshev – filologiya

fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchi:

Z.Teshaboyeva – filologiya fanlari

doktori, dotsent

H.Samigova – filologiya fanlari

doktori, dotsent O’zDJTU

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

(202__-yil _____dagi __-sonli qarori)

MUNDARIJA

| T/r | BO'LIMLAR | SAHIFA |
|-------|---|--------|
| I. | ISHCHI O'QUV DASTUR | 4 |
| II. | MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI | 16 |
| III. | NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI | 27 |
| IV. | AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI | 48 |
| V. | KEYSLAR BANKI | 71 |
| VI. | GLOSSARIY | 73 |
| VII. | ADABIYOTLAR RO'YXATI | 80 |
| VIII. | TAQRIZ | 85 |

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qaror, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagи “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nasr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, badiiy tarjima sohasiga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, ularni amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o‘zaro integrallashuvi natijasida turli xalqlarning badiiy asarlarini o‘rganishga va shu orqali o’sha xalqlar haqida ma’lumotlar to’plashga, ularning madaniyati, urf-odatlari, an’ana va marosimlarini o‘rganishga intilish kuchayib bormoqda. Bu intilishlarning

qondirilishi va madaniy aloqalarning jadallik bilan rivojlanishida tarjimonlar, xususan, badiiy adabiyot tarjimonlarining xizmatlari katta ahamiyatga ega. Bir xalqning nodir adabiyot namunasini o'zga xalqlar tiliga asl holidek yetkazishda badiiy matn tarjimonining kasbiy, lingvistik, ijodiy, entsiklopedik kompetentsiyalari yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim. Bu esa dunyo mamlakatlarida bugungi kunda badiiy matn tarjimonini tayyorlash masalasi dolzarb ekanligini bildiradi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda barcha fan sohalari kabi tarjimashunoslik sohasini ham keng rivojlantirish, tarjimonlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, oliy ta'lif muassasalarida tarjimani o'qitish jarayoniga yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish ishlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu esa yurtimizda o'zbek tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan o'zbek tiliga turli uslubdagi adabiyotlarni tarjima ishlarini keng ko'lamda amalga oshirishga zamin yaratadi. Bu jarayonlarni keng sur'atda rivojlantirish uchun keyingi yillarda yurtimizda bir qator islohotlar amalga oshirildi.

“Amaliy tarjima” moduli Oliy ta'lif muassasalarida amaliy tarjima, tarjima nazariyasi va amaliyoti kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib boradigan professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi oldidagi davr talabiga mos ravishda tuzilgan kurs sifatida e'tirof etish mumkin. Tarjimashunoslik sohasida mavzjud so'ngi yangliklar, jiddiy o'zgarishlar va yangilanishlar, shubhasiz, tarjimada amalga oshirilayotgan yangi qarashlarni oliy ta'linda ham joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda tarjimon tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalarida amaliy tarjimani talabalarga o'rgatish, bo'lajak tarjimonlarning kasbiy, lingvistik hamda ensiklopedik kompetentsiyalarini shakllantirish, tarjima uslublari va usullaridan samarali foydalanish metodlarini talabalarga o'rgatishni samarali tashkil etish uchun professor-o'qituvchilar amaliy tarjima fanini ta'lif jarayonida mazmunli tashkil eta olishi lozim. Amaliy tarjimani talabalarga o'rgatishda lingvistik va

metodik asoslar negizida professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga tarjima jarayonida uchraydigan morfologik, sintaktik, leksik-semantik hamda stilistik muammolar va ularni bartaraf etish usullarini o'rgatishga alohida diqqat qaratish erishish mumkin.

Amaliy tarjima orqali bevosita tarjimaining lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini keng tadqiq qilish, shu orqali amaliy tarjima bo'yicha o'z tajribalarini kengaytirish, talabalar tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarga samarali yechim topa olishga imkoniyat yaratadi.

Modulning maqsad va vazifalari

“Amaliy tarjima” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida sohaga doir bilimlarni rivojlantirish, tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatish, badiiy asarlar tarjimasida til bilishdan tashqari zarur hisoblangan tuyg'u va obrazlar olamini teran anglab yetish kabi san'atkorlik hislatlarini shakllantirish, badiiy asarlarni tarjima qilish usullarini o'rgatish, tarjima sifatini qiyoslab aniqlash, chet tilidan ona tiliga, ona tilidan chet tiliga tarjima qilish malakalarini shakllantirish va amaliyatga oid fundamental ma'lumotlarni berish, jahon olimlarining ushbu sohaga oid ilmiy izlanishlari bilan tanishtirish iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talablari nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar ilmiy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali erishiladi. Amaliy tarjima kursi malaka oshirish kursi tinglovchilarida yangicha ilmiy yondashuvlarni ta'lim sohasi va ilmiy tadqiqt uchun keng tadbiq etishga ko'maklashish, ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini o'rgatishni ko'zda tutadi.

Ushbu modulning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs tinglovchilarini tarjima jaraynida talabalarda uchraydigan tarjima ga'lizliklari va xatolarini til sathlari bo'yicha ajratib olish va bu xatoliklarni bartaraf etish usullari bilan tanishtirish;
- professor-o'qituvchilarda OTMlarda tarjimashunoslikda matnni uslubiga ko'ra tanlanadigan tarjima uslublari va matndagi kichik leksik birliklar

- tarjimasida qo'llanadigan tarjima usullaridan tarjima yo'nalishining mutaxassislik fanlarida foydalanish ko'nikmasini qaror topdirish;
- tarjimada uchraydigan tarjimaning lingvistik va ekstralivingistik muammolarini talabalarda qanday qilib bartaraf etish usul va yo'llaridan samarali foydalanishni malakasini shakllantirishdan iborat.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko'nikma, malaka darajasiga qo'yiladigan talablar

“Amaliy tarjima” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilimlarga ega bo'lishi kerak:**

- tarjimaning fundamental tushunchalari borasida yetarli axborot;
- o'zbek tilidan chet tiliga badiiy tarjima qilishning nazariy aspektlari;
- badiiy tarjimada qo'llaniladigan tasviriy vositalar va transformatsiyalar;
- nolisoniy birliklarning tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari;
- ingliz va o'zbek tillarining fonetik, morofologik, sintaktik, leksik, stilistik, matn sathlari bo'yicha farqli va o'xshash jihatlar.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi **ko'nikmalarni** shakllantirishga xizmat qiladi:

- o'zbek tilidan xorijiy tillarga badiiy tarjima qila olish
- amaliy tarjimada qo'llangan tarjima usullarini tahlil qila olish;
- talabalar duch keladigan lingvistik va ekstralivingistik muammolarni bartaraf etish usullarini yaxshi o'zlashtirish;
- tarjimalarni asliyat bilan qiyoslab taqriz yoza olish;
- matnlarni interpretatsiya (talqin) qilish;
- turli tarjima matnlaridagi leksik-semantik farqlarni va grammatik nomuvofiqliklarni tushunish va mos ekvivalentlar topa olish;
- zamonaviy tarjimashunoslikning lingvistik muammolari haqida bahsga kirishish.

Ushbu modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar quyidagi **malakalarni** egallashlari mo‘ljal qilinadi:

- tarjimada foydalaniladigan tarjima uslub va usullarni tarjima jarayonida samarali qo‘llay olishni o‘zlashtirish;
- til va madaniyatlararo yuz berishi mumkin bo’lgan stsenariylar modelini ishlab chiqish;
- tarjima nazariyasi va amaliyoti yo’nalishidagi fanlarni o’qitish jarayoniga ilg’or innovatsion texnologiyalarni integratsiya qila olish;
- jahon tarjimashunosligi taraqqiyotiga oid innovatsion g’oyalarni o’zbek tarjimashunosligiga tatbiq qilish
- tarjimada yuzaga keladigan ekstra-lingvistik muammolarni tegishli tarjima usullari orqali bartaraf etishni badiiy tarjima tahriri orqali tushuntira olishni amalda qo‘llay olish.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Amaliy tarjima” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, tarjimashunoslik ilmidagi eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi mashg‘ulotlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning amaliy tarjimaga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning semantic xarita, kluster, aqliy hujum singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Amaliy tarjima” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning Oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Amaliy tarjima” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan badiiy tarjimalar to‘g‘risida fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o‘qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Auditoriya yuklamasi | | |
|----|---|----------------------|---------|--------|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy |
| 1. | Tarjimashunoslik nuqtai nazardan asliyat va tarjima tillarining o‘zaro nisbati | 2 | 2 | |
| 2. | Tarjima uslublari va ularning tarjimada matn uslublariga ko‘ra tanlash mahorati | 2 | 2 | |
| 3. | Tarjima usullari va ularning til sahlari boyicha tasnifi | 2 | 2 | |
| 4. | O‘zbek tilidan ingliz tiliga badiiy matnni o‘girishda tarjima muammolarini bartaraf etish | 2 | | 2 |
| 5. | O‘zbek tilidan ingliz tiliga publisistik uslubdagi matnlar tarjimasidagi muammolarni bartaraf etish | 2 | | 2 |
| 6. | O‘zbek tilidan ingliz tiliga rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasidagi muammolarni bartaraf etish | 2 | | 2 |

| | | | | |
|----|--|-----------|----------|-----------|
| 7. | O'zbek tilidan ingliz tiliga ilmiy uslubdagi matnlar tarjimasidagi muammolarni bartaraf etish | 2 | | 2 |
| 8. | Tarjimashunoslikda ekvivalentlik xosisasi hamda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish strategiyalari | 2 | | 2 |
| | Jami: | 16 | 6 | 10 |

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tarjimashunoslik nuqtai nazardan asliyat va tarjima tillarining o'zaro nisbati.

Tarjima tushunchasining asosiy mohiyati. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimaning o'ziga xos susiyatlari. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimadagi muammolarning yuzaga kelish omillari. O'zbek va ingliz tilirining genetik jihatdan ikki til oilasi va til guruhiaga mansubligi. O'zbek tili Oltiy tillar oilasining turkiy tillar guruhiaga, ingliz tili Xind-Yevropa tillar oilasining german tillar guruhiaga mansubligi. O'zbek va ingliz tillari dunyo tillarining morfologik tasnifiga ko'ra ham turli til guruhiaga mansubligi. O'zbek tili agglyutinativ tillar guruhiaga, ingliz tili esa flektiv tillar guruhiaga mansubligi. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada tarjimada sintaktik muammolar. Sintaktik muammolarni yuzaga kelishida ikki tilning sintaktik strukturasi va so'z tartibidagi farqlar. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada tarjima usullarining faol qo'llanishi.

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada qo'llanadigan tarjima uslub va usullarini til sathlari bo'yicha tahlil qilish asliyat va tarjima matnlarining struktur, leksik, funksional ekvivalentlik xolatlarini aniqlash imkonini beradi.

2-mavzu. Tarjima uslublari va ularning tarjimada matn uslublariga ko'ra tanlash mahorati

Tarjimashunoslikdagi tarjima uslubi, tarjima usuli, tarjima strategysi va tarjima transformatsiyasi kabi tushunlar va ularning mohiyati va tarjidagi funksiyasi jihatidan bir-biridan farqlari. Tarjima uslubi asliyat matnining uslub

jihatidan turiga ko'ra tanlanadi va tarjimonning butun matnning tarjimasiga yondashuvini belgilab beradi. Tarjima uslublari:

- so'zma-so'z tarjima;
- gapma-gap tarjima;
- asliyatga sodiq xolda tarjima;
- semantic tarjima;
- kommunikativ tarjima;
- nazmiy tarjima;
- akademik tarjima;
- moslama tarjima;
- erkin tarjima;
- kommunikativ tarjima;
- idiomatik tarjima;
- axborotli tarjima.

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada lisoniy g'alizliklar, tarjimada uchraydigan xatoliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish usullarini talabalarga o'rgatish uchun ushbu tarjima g'alizliklari va xatolarni kelib chiqish omillarini anqilab olish talaba etiladi.

3-mavzu. Tarjima usullari va ularning til sahtlari boyicha tasnifi.

Tarjimashunoslikdagi tarjima usuli, tarjima strategisi va tarjima transformatsiyasi kabi tushunlar mavjud bo'lib, ular bir tushunchaning turli nomlanishi xisoblanadi. Tarjima usullari asliyat matnidagi kichik leksik birliklar: so'zlar, qo'shma so'zlar, terminlar, neologizmlar, arxaizmlar, maqollar, frazeologik birliklar, aforizmlar kabilarni tarjima tiliga olib o'tishda faol qo'llanadi. Til tizimi bo'yicha tasnifga ko'ra, fonetik tarjima usullari: transliteratsiya, transkripsiya; grammatik tarjima usullari: transpozitsiya, inversiya, sintaktik o'zgartirish, kompensatsiya, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, kengaytirish, toraytirish, kompressiya, perefraz; leksik tarjima usullari:

so'z o'zlashtirish, ekvivalentlik va ularning turlari, moslashtirish, naturalizatsiya, sinonimiya, eslatmalar va shu kabilar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy matnni o'girishda tarjima muammolarini bartaraf etish

Badiiy tarjima tarjima sohasining boshqa ushlubdagi ko'rinishlaridan o'zida tilning barcha sathiga doir lisoniy birliklar va turli aspektlarga doir ekstralengvistik birliklar qo'llanganligi, badiiy matnning janriy xususiyatlari, estetik qiymatga egaligi, muallif uslubi, vaqt, makon va zamon masalasi kabilar namoyon bo'lishi bilan farq qiladi. O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimada qo'llanadigan tarjima uslub va usullarini til sathlari bo'yicha tahlil qilish asliyat va tarjima matnlarining struktur, leksik, funksional ekvivalentlik xolatlarini aniqlash imkonini beradi. Badiiy tarjima roman, esse, badiiy adabiyot, qisqa hikoyalar, komediya, xalq ertaklari, tanqidiy asarlar, dostonlar, lirik she'r, epik she'r, dramatik she'r, ruboiy, chiston, sonet, ballada kabi nasriy va she'riy asarlarni o'zga tilga o'girishni o'z ichiga oladi va tarjima jarayonida mazkur badiiy matnlarni janr xususiyatlariga etibor qaratishni maqsad qiladi.

2-mavzu. O'zbek tilidan ingliz tiliga publitsistik uslubdagi matnlar tarjimasidagi muammolarni bartaraf etish

Publitsistik materialni tarjima qilish bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Publitsistik matnlar nafaqat maxsus terminlarni, balki munozara belgilarini ham o'z ichiga oladi. Muallif har doim publitsistik maqolada o'z fikrini bildiradi, bu esa tarjimada eng adekvat tarzda etkazilishi kerak.

Publitsistik matnlar fan va texnikaning turli sohalariga oid turli materiallardan, shuningdek, badiiy iqtiboslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ko'pincha publitsistik maqolaning tarjimasi asl matndan sezilarli darajada farq qiladi. Tarjima matnida ba'zi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri lug'aviy ma'nosidan

sezilarli og‘ishlar mavjud bo‘lib, ko‘chma mazmuni ham sezilarli darajada o‘zgaradi. Tarjimada uslubning asosiy xususiyatlari saqlanishi kerak.

Publitsistik uslubda boshqa sohalarga ham oid bo’lgan leksika va matnlar qo’llanganligi bois o’zbek tilidan ingliz tiliga ushbu uslubdagi matnlar tarjimasida tarjima usullari faol qo’llanadi.

3-mavzu. O’zbek tilidan ingliz tiliga rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasidagi muammolarni bartaraf etish

O’zbek tilidan ingliz tiliga rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasining o’ziga xos xususiyatlari. Rasmiy uslubga doir leksika va uning tarjima muammolari. Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasida sintaktik muvofiqlikka erishish usullari. Rasmiy uslubga doir matnlar tarjimasida qo’llanadigan tarjima uslublar: gaplarni birma-bir tarjima qilish, asliyatga sodiq xolda tarjima, kommunikativ tarjima. Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasida uslubiyat masalasi.

Rasmiy uslubning asosiy vazifasi davlat va uning fuqarolari, jamiyat va uning a’zolari, hukumatlar, partiyalar, korxonalar va boshqalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Rasmiy uslubga doir matnlar tarjimasi qonun va qarorlar, Prezidentlar nutqlari, shartnama, bitim, akt, qonunosti hujjatlar, farmon, konstitutsiya, nizom, yo’riqnama, memorandum, sertifikat, xat, faks, teleks, biznes-reja va boshqalarni bir tildan boshqa tilga tarjiamani o’z ichiga oladi. Bu janrdagi matnlar tarjimasi asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

4-mavzu. O’zbek tilidan ingliz tiliga ilmiy uslubdagi matnlar tarjimasidagi muammolarni bartaraf etish.

Ilmiy-texnik uslubning asosiy vazifasi axborot berishdir. Ushbu uslub tarjimasi asosan ilm-fan, gumanitar fanlar va texnologiya kabi professional sohalardagi matnlar chet tiliga o’girish bilan shug’illanadi. Ilmiy uslubdagi asosiy tarjima uslublari akademik tarjima, gapma-gap tarjima va asliyatga sodiq xolda tarjima. Mazkur uslubdagi matnlar tarjimasida funksional tarjima, kompressiya, so’z o’zlashtirish usullari qo’llanadi. Tarjima jarayonida mantiqiy ma’lumotlarni

yetkazish, uning yangiligi va ahamiyatini isbotlash - olim, ilmiy yoki texnik muallifning asosiy maqsadi xisoblanadi. Ushbu uslub fan, gumanitar fanlar, texnologiyaning professional sohalarida qo'llaniladi.

5-mavzu. Tarjimashunoslikda ekvivalentlik xodisasi hamda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish strategiyalari.

Ekvivalentlik xodisasi va uning asosiy xossalari. Ekvivalentlik va uning turlari: funksional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, shakily ekvivalentlik, yaratilgan ekvivalentlik. Ekvivalentlik darajalari: so'z darajasida ekvivalentlik, so'z birikmasi darajasida ekvivalentlik, gap darajasida ekvivalentlik, matn darajasida ekvivalentlik.

Ekivalentlik – bu tarjima jarayonida eng ko'p murojaat etiladigan tushunchalardan biri bo'lib, nasriy tarjimadan undan foydalanishning o'ziga xos afzallik va noafzalliklari mavjud.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:


- masofadan o'qitish;
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda badiiy tarjimaga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatish.



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Semantik xarita” metodi

Semantik xarita interfaol metodi darsning amaliy qismining boshlanishida, ya’ni asliyat matni tinglovchilarga taqdim etilgandan keyin qo’llanishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol metod orqali tinglovchilar uchun notanish bo’lgan ayrim so’zlarning tarjimasi, ularning ma’nolari yuzasidan ma’lumotga ega bo’la oladi. O’qituvchi tinglovchilarning badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish yuzasidan tarjima qilish uchun taqdim etilgan matndagi biror so’z va uning semantik xaritasini tuzishni topshiriq qilib beradi.



Mazkur interfaol metod talabalarning lingvistik, kasbiy, kommunikativ kompetentsiyalari hamda mustaqil fiklash ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

| | |
|------------------------|---------------------------|
| S (strength) | - kuchli tomonlari |
| W (weakness) | - zaif, kuchsiz tomonlari |
| O (opportunity) | - imkoniyatlari |
| T (threat) | - to'siqlar |

Namuna: Badiiy matnlar tarjimasida lingvistik tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

| | | |
|----------|--|---|
| S | Badiiy matn tarjimasi bo'yicha lingvistik tahlilning kuchli tomonlari. | Asliyat va tarjima matnlarining til sathlari bo'yicha faqrli va o'xshash jihatlari bo'yicha har tomonlama xolis xulosa chiqarishi. |
| W | Badiiy matn tarjimasi bo'yicha lingvistik tahlilning kuchli tomonlari. | Asliyat va tarjima matnlarining nolisoniy xususiyatlari tahlilini tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi. |
| O | Badiiy matn tarjimasi bo'yicha lingvistik tahliln (ichki) imkoniyatlari. | Asliyat va tarjima matnining barcha til sathlari jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi. |
| T | To'siqlar (tashqi). | Asliyat va tarjima tillarida o'zaro bir-biriga lakuna xisoblanadigan lisoniy birliklar bo'yicha tinglovchilarining nazariy bilimlari yetishmasligi. |

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhgaga umumiy muammoni tahlil qilinishi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi.

| Linvistik tahlil tizimlari | | | | | |
|----------------------------|------------|------------------|------------|------------------------|----------------|
| Fonetik tahlil | | Sintaktik tahlil | | Leksik-semantik tahlil | |
| afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchili gi |
| | | | | | |
| Xulosa: | | | | | |

“Ikkita to’g’ri va bitta xato” metodi

“Ikkita to’g’ri va bitta xato” interfaol metodi asliyat matnining bir necha xil tarjima variantlarini solishtirib tahlil qilish orqali tarjimani o’rgatishga bag’ishlanadi. Bunda tinglovchilarga asliyat matni va 3 ta tarjima variantlari taqdim etiladi. Tinglovchilar o’zlarining daftarlariga 4 ta katak bo’sh joy chizadi.

Ulardan birinchisiga asliyat matnidagi bitta gap yoziladi. Ikkinci bo’sh katakka tarjima variantning noto’g’risi yoziladi. Uchinchi va to’rtinchi bo’sh kataklarga to’g’ri tarjima variantlari yoziladi. Bu topshiriqlarni har bir tinglovchi o’zining yondashuvi va munosabati asosida bajaradi va navbatma-navbat nima uchun to’g’ri va noto’g’ri variantlar yozilganligini asoslاب beradilar.

| | | |
|-----------------|--|-----------------|
| Asliyat matni | <i>Bulardan bittasi ichidan atlas ko ‘ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan</i> | Asliyat matni |
| Tarjima matni 1 | <i>One of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face</i> | To’g’ri variant |
| Tarjima matni 2 | <i>One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe.</i> | To’g’ri variant |

| | | |
|--------------------|--|-------------------|
| Tarjima matni 3 | <i>One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress</i> | Noto'g'ri variant |
|--------------------|--|-------------------|

“Keys-studi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|---|---|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minti bilan tanishtirish. | <ul style="list-style-type: none"> – yakka tartibdagи audiovizual harakat; – keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); – axborotni umumlashtirish; – axborot tahlili; – muammolarni aniqlash. |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash. | <ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; – asosiy muammoli vaziyatni belgilash. |
| 3-bosqich: Keysdagи asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish. | <ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; – har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; – muqobil yechimlarni tanlash. |
| 4-bosqich: Keys | <ul style="list-style-type: none"> – yakka va guruhda ishlash; |

| | |
|--|--|
| <p>yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</p> | <ul style="list-style-type: none"> – muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; – ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; – yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish. |
|--|--|

Keys. Badiiy (she'riy) matn tarjimasini tahlil qilish uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruba mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

| | |
|----------|---|
| F | - fikringizni bayon eting |
| S | - fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating |
| M | - ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring |
| U | - fikringizni umumlashtiring |

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.


Namuna: Fikr: “Tarjima uslublari asliyat matnning uslub jihatidan turiga qarab tanlanadi va ular tarjimonga o‘z yondashuvini belgilab olishga yordam beradi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tarmoqlar” metodi

“Tarmoqlar (Cluster)” metodi tinglovchilarni faollashtirishga va mustaqil fikrlashga undaydi hamda ta’lim jarayonining markazida bo’lgan tinglovchi va o’qituvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Tinglovchi dars jarayonida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayon ta’lim oluvchilarning o’qib-o’rganishini rag’batlantiradi, darsga qiziqishning yuqori darajada bo’lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlarga muvofiqlashtirishda tashabbuskor va mas’uliyatli bo’lishni, munozara va tahlilni amalda bajarish orqali fikr-mulohaza yuritishni ta’minlaydi.

Tarmoqlar interfaol metodini badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etishda qo'llash berilgan matndagi sintaktik muammolarni tegishli transformatsiya va yondashuvlar orqali bartaraf etishga yordam beradi.



Ushbu interfaol metod orqali tinglivchilarining til ko'nikmalari bilan birgalikda, ularning lingvistik, nasriy va kasbiy kompetentsiyalari ham rivojlanadi. Bu metod badiiy tarjimaning sintaktik muammolaridan tashqari, leksik-semantik, stilistik muammolari va ularni bartaraf etish usullariga bag'ishlangan darslarda ham foydalanilishi mumkin.

“Oltita fikrlovchi qalpoqcha” metodi

Oltita fikrlovchi qalpoqcha metodi muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakatni ifodalaydi. Unga ko'ra talabalar olti xil rangdagi qalpoqlarni kiyish orqali fikrlashning muayyan jarayonlarini amalga oshiradi. Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish usullarini o'rgatish metodikasida qalpoqlachalarning ranglari ostida asliyat matnida qo'llangan leksik birlikning tarkibi belgilanadi hamda quyidagi ranglar ostida tegishli leksik birliklar va ularning kontekstual ma'nolarini topish va matnga moslab tarjima tiliga olib o'tish talabalarga topshiriq sifatida beriladi.

Qalpoqlarning ranglari quyilagilarni anglatadi:

| | |
|---------------|----------------------------|
| Oq qalpoq | denotative so'zlar |
| Qizil qalpoq | polisemantik so'zlar |
| Qora qalpoq | konnotativ ma'noli so'zlar |
| Sariq qalpoq | terminlar |
| Yashil qalpoq | neologizmlar |
| Ko'k qalpoq | realiyalar |

Bunda qalpoqlarning ranglari bo'yicha leksik birliklar tarkibini taqsimlashdan maqsad shuki, yorqin ranglar, jumladan qizil, qora, hamda ko'k qalpoqlar ostidagi so'z va so'z birikmali badiiy tarjimada leksik-semantik muammolarni yuzaga keltirishda asosiy rol o'ynaydi. Oq, sariq hamda yashil rangdagi so'z va so'z birikmalarining tarjimasida esa talabalar nisbatan kamroq muammolarga duch kelishadi. O'qituvchi tarjima jarayoniga yorqin rangdagi leksik birliklar tarjimasiga jiddiyroq e'tibor qaratish lozimligini tavsiya etadi.

Ushbu interfaol metod talabalarning mustaqil fikrlash, o'z ustida ishslash ko'nikmalari, shuningdek, lingvistik, professional hamda kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Tarjimaning asosiy lingvistik usullari.





III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-MAVZU:

TARJIMASHUNOSLIK NUQTAI NAZARDAN ASLIYAT VA TARJIMA TILLARINING O'ZARO NISBATI

REJA:

- 1. Tarjima tushunchasining asosiy mohiyati*
- 2. Tarjima va qiyosiy tipologiya*
- 3. Tarjimaning lingvistik aspektlari*
- 4. O'zbek va ingliz tillarining til sathlari bo'yicha o'xshash va farqli jihatlari*

Tayanch so‘z va iboralar: Tarjima, tarjimon, qiyosiy tilshunoslik, fonetika, morfologiya, sintaksis, leksikologiya, stilistika, matn lingvistikasi, allomorf, izomorfik jihatlar.

Tarjima tushunchasining asosiy mohiyati. Tarjima bir tilda yaratilgan til yoki nutqiy birlikni asliyat va tarjima tillarining lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini xisobga olgan xolda boshqa tilga o'girish jaryonidir. Q. Musaevning fikriga ko'ra, “insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmiss tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir”¹. Darhaqiqat, tarjima – ijod mahsulidir. Bir tildagi ijod mahsulini o'zga tilda yaratish ijodkorning ijod mahsuli hisoblanadi.

M.Snel-Xornbi esa, tarjimaga “bir tilda ifodalangan narsani o'girish yoki o'sha tilning belgilarini joylashtirish jarayoni yohud harakati”² deb ta'rif beradi. J.Katfordning fikricha esa “tarjima bir tildagi matn materialini boshqa tildagi matn materialining ekvivalenti bilan almashtirishdir”³. R.Bellning ta'kidlashicha “tarjima asliyat tilida ifodalangan narsaning semantik va stilistik ekvivalentligini

¹ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T: Fan, 2005. – B.8.

² Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. – P.39.

³ Catford J. A Linguistic Theory of Translation. – London: OUP, 1965. – P.20.

saqlagan holda tarjima tilida ifodalashdir”⁴. Y.Nayda va S.Taber “tarjima manba tilidagi ma'lumotni, birinchidan, ma'no terminlari, ikkinchidan, uslub terminlari jihatidan eng yaqin ekvivalentini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat,”⁵ jarayon deb hisoblaydi. Umuman olganda, tarjima ikki tilning o'zaro lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ijodiy jarayon hisoblansa-da, insonlar tomonidan yaratiladigan og'zaki nutqdagi yoki yozma shakldagi matnlar, jumladan, hajviy matnlarda biror tilning o'ziga xos lingvistik xususiyatlaridan tashqari ekstralengvistik xususiyatlar ham aks etadi.

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya. Ikki yoki undan ortiq til sistemasining o'ziga xos xususiyatini xamda chog'ishtirilayotgan tillar sistemalari orasidagi muvofilik qonuniyatlarini aniqlash, qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining umumiyl vazifasidir.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining bir-biriga o'xshash va farq qilish mezonlariga qisqacha to'xtab o'tamiz.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasini o'zaro yaqinlashtiradigan asosiy o'xshashliklar quyidagilardir:

1) qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi umumiyl mazmun planining tarkibiy qiyosiga asoslanadi;

2) qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi bajaradigan ish jarayoni o'xshashdir, ya'ni abstraktlash (mavxumlash)dan korrespondentsiyalash (muvofiglashuv)ga yoki analizdan sintezga o'tadi;

3) umuman qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi ikki yoki undan ortiq til sistemalari yaruslararo birliklarining natijalariga asoslanib ish ko'radi;

4) tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya qardosh va qapdosh bo'limgan tillar sistemalarini universal ravishda tadqiq qiladi.

Badiiy tarjima tahririning tahlil metodlari. Tarjimaning lingvistik aspektlari. Tillar orasidagi turli xil farqlar ma'lum bir tildagi ma'lumotni boshqa bir tilga tarjima qilishda ko'plab sintaktik muammolarni keltirib chiqaradi. Bu

⁴ Bell R. Translation and Translating. – London and New York: Longman, 1991. – P.5.

⁵ Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. United Bible Society, 1969. – P.12.

muammolar asliyat va tarjima tillari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi, ya'ni tillarning genetik jihatidan yaqin yoki uzoqligiga qarab ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ular qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, tarjima jarayonida sintaktik qiyinchiliklar shunchalik kam yuzaga keladi. Agar asliyat va tarjima tillari ingliz va nemis (Hind-Evropa oilasining german tillari guruhiga) yoki o'zbek va turk (Oltoy tillari oilasining turkiy tillar guruhiga) tillari kabi bir til oilasi yoki guruhiga mansub bo'lsa, tarjimon sintaktik muammolarga kamroq duch kelishi mumkin. Ammo asliyat va tarjima tillari har xil til oilalariga, jumladan, o'zbek va ingliz tillariga mansub bo'lsa, sintaktik muammolar ko'proq yuzaga keladi.

Turli tillarda gap bo'laklarining joylashuv o'rni, tartibi turli xil bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun tarjima jarayonida faqatgina so'zlarni to'g'ri tarjima qilishning o'zi yetarli emas, ya'ni tarjimada so'zlar tilning sintaktik va idiomatik qo'llanilishiga mos keladigan tarzda joylashtirilishi ham kerak. Aks holda, ular tarjima tili qabul qiluvchilari tomonidan tushunilmaydi va shu sababli tarjima ta'sirli bo'lishi dargumon.

Badiiy tarjima jarayonida tilning morfologik xususiyatlari bilan bog'liq muammmolar qatoriga ushbu tillardagi ot kategoriyasidan tashqari fe'l so'z turkumiga doir o'xshashlik va farqli jihatlar ham mavjud bo'lib, ular ham tarjima jarayonida turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Tarjimada uchraydigan sintaktik muammolarni badiiy matnlar nuqtai nazardan ko'rар ekanmiz, e'tirof etish lozimki, tarjimonlar sintaksis bilan bog'liq muammolarga nafaqat biz o'rganayotgan nasriy matnlar tarjimasida, balki, she'riy matnlar tarjimasida ham ko'p bora duch kelishadi. Chunki, she'riy matnlardagi o'ziga xos inversiya, ritm, qofiya kabilarni tarjima tilida ham eks ettirishda ikki tilning sintaktik xususiyatlarini yaxshi bilish talab etiladi. She'riy matnlar tarjimasining sintaktik xususiyatlari alohida bir monografik tadqiqotni talab etganligi bois, biz ushbu masalaga nasriy matnlarning sintaktik xususiyatlari borasidagi fikrlarnigina berishni lozim topdik.

Badiiy tarjimaning leksik-semantik xususiyatlari, tarjimaning bu ko'rinishida uchraydigan leksik-semantik muammolar yuzasidan so'z borganda, asliyat badiiy matnida qo'llangan leksik birliklar, ularning muallif tomonidan qo'llangan denotativ va konnotativ ma'nolari, so'zlarning polisemantik xususiyatlari, terminlar, realiyalar, neologizm va okkazionalizmlar, leksik birliklarning yasalish shakliga ko'ra qo'shma so'zlar, qisqartmalar, konversiyalarning tarjima tilida to'g'ri qayta ifodalanishi kabi masalalar oldingi planga chiqishi lozim. Badiiy matn tarjimasining to'laqonli kommunikativ funktsiyaga ega bo'lishi uchun bo'lajak badiiy tarjimondan kasbiy kompetentsiyasi tarkibiga kiruvchi lingvistik kompetentsiyasida asliyat va tarjima tillarining leksik-semantik sathidagi o'xshashlik va farqli jihatlari borasida bilim va ko'nikmalar yetarli darajada shakllangan bo'lishi taqozo etiladi.

O'zbek va ingliz tillarining til sathlari bo'yicha o'xshash va farqli jihatlari.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy matn tarjimasini o'qitishda morfologik va sintaktik muammolar va ularni bartaraf etish usullarini talabalarga o'rgatishda a) grammatik kategoriylar; b) o'zbek tilida ko'plik kategoriyasi "-lar"ning ko'plik va kuchaytirish ma'nolarini ifodalashi; v) ingliz tilidagi Present Perfect Continuous, Past Perfect Continuous, Future Continuous, Future Perfect, Future Perfect Continuous, Future Indefinite in the Past, Future Continuous in the Past, Future Perfect in the Past, Future Perfect Continuous in the Past zamonlarida ifodalangan ish-harakatlarning muqobillari o'zbek tilida mavjud emasligi; g) ikki tilning sintaktik qurilmalari; d) so'z tartibi; ye) sintaktik noaniqliklar borasidagi farqli jihatlari xususida yetarli axborot berish maqsadga muvofiq.

Badiiy tarjimada uchraydigan morfologik, sintaktik muammolarni bartaraf etish usullari sifatida analogiya, funksional ekvivalentlik sintaktik muammolarini so'z qo'shish, inversiya, kompressiya, so'z tarkibini o'zgartirish, so'z tushirib qoldirish kabi transformatsiyalardan foydalanish orqali hal etish borasida talabalarda ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Badiiy matnda qo'llangan leksik birliklar ularning muallif tomonidan qo'llagan denotativ va konotativ ma'nolari, so'zlarning polisemantik xususiyatlari, terminlar, realiyalar, neologizm va okkazionalizmlar, leksik birliklarning yasalish shakliga ko'ra qo'shma so'zlar, qisqartmalar, konversiyalarning tarjima tilida to'g'ri qayta ifodalanishi kabi badiiy tarjima muammolarini ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, so'z o'zlashtirish, kal'kalash, transliteratsiya, moslashtirish kabi transformatsiyalardan foydalanishni ham talabalarga o'rgatish lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tarjimaning asosiy mazmun-mohiyatini tavsifab bering.
2. Tarjimaning lisoniy aspektlari deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbek va ingлиз tillarida fonetik va morfologik farqli xususiyatlar qanday?
4. Tarjimaga yondashuv nima?
5. Tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiyaning aloqadorligi nimadan iborat?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
2. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
3. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
4. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
5. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
6. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

2-MAVZU:

TARJIMA USLUBLARI VA ULARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI

REJA:

- 1. Tarjima uslubining mazmun-mohiyati**
- 2. Badiiy matnlar tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublari**
- 3. Rasmiy matnlar tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublari**
- 4. Ilmiy uslubga xos matnlar tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublar**
- 5. Publitsistik uslubdagi matnlarni o'girishda qo'llanadigan tarjima uslublari**

Tayanch so‘z va iboralar: Tarjima, asliyat matni, tarjima matni, tarjima uslubi, so‘zma so‘z tarjima, adaptatsiya, naturalizatsiya, kommunikativ tarjima, idiomatik tarjima, metrik tarjima.

Tarjima uslubining mazmun-mohiyati. Tarjimaning uslublari haqida so‘z yuritganda shu tushunchaga yaqinroq bo‘lgan tarjimaning boshqa tushunchalarining bayonini ham keltirib o’tish maqsadga muvofiq. Tarjimashunoslikda tarjima uslubi (translation method), tarjima usuli (translation tools), tarjima texnikasi (translation technique), tarjima protseduralari (translation procedures), tarjima transformatsiyalari (translation transformation), tarjima strategiyasi (translation strategy) kabi fundamental tushunchalari borki, ulami bir-biridan farqini aniqlashtirib olish lozim.

Bundan asosiy maqsad badiiy matn tarjimonini tayyorlashda tarjima jarayoniga yondashuv, badiiy matn tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslub va usullari borasida talabalarga yetarlicha axborot bera olishimiz juda muhimdir.

Tarjima uslubi tarjima jarayonida matnning uslub jihatidan turiga va tarjimonning maqsadiga qo‘ra tanlanadigan usul sanaladi. Ko’plab xorij tarjimashunos olimlari tomonidan taklif etilgan “tarjima metodi” tarjimani amalga

oshirish usullari, yo'llari, uslublarini belgilab beradi va matnning uslub jihatidan turiga ko'ra tanlanishini inobatga olib, shuning tadqiqot ishimiz tarjimashunoslik sohasida olib borilayotganligi uchun mazkur tadqiqotda biz "tarjima metodi"ga nisbatan "tarjima uslubi" terminini qo'lladik. Tarjimashunoslik tarixida "tarjima uslubi" termini dastlab Mark Tulyi Sitseron (m. avv. 106-43) tomonidan qo'llangan. Sitseron ilk bora so'zma-so'z va ma'noviy tarjima uslublaridan foydalangan. Nazarimizda, Sitseron tarjima jarayonida asliyat matnini boshidan – oxirigacha so'zma-so'z yoki ma'noviy tarjima metodidan foydalanib tarjima matniga o'girgan.

M.Larsonning fikriga ko'ra, "tarjima uslubi ikki turga bo'linadi. Birinchisi – shaklga asoslangan yoki so'zma-so'z tarjima uslubi. Ikkinchisi – ma'noga asoslangan yoki idiomatik tarjima uslubi. So'zma-so'z tarjima deganda, tarjimada asliyat tili shaklini o'zgartirmasligi nazarda tutiladi. Idiomatik tarjimada asliyat tili yozuvchisi nazarda tutgan ma'noni tarjima tiliga olib o'tish maqsad qilinadi". Fikrimizcha, idiomatik tarjima ko'proq badiiy matn tarjimasiga aloqador hisoblanadi. Chunki, badiiy matnda tilning o'ziga xos tasviriy ifoda vositalaridan keng foydalaniladi. Bu holatda tarjimon badiiy matnning ma'nosini olib o'tishga urinadi.

Badiiy matnlari tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublari.

P.Nyumarkning fikricha, "semantik tarjimada asliyatning aniq kontekstual ma'nesi tarjima tilining semantik va sintaktik strukturasiga imkon qadar yaqinlashtirishga harakat qilinadi" Semantik tarjimada asliyat tiliga yondashish kuzatiladi. Tarjimada asliyat matni muallifining fikr va g'oyalari saqlanadi. Tarjima hamma uchun tushunarli bo'ladi, ammo asliyatga oid madaniyat ham olib o'tiladi. Agar asliyat matnida asosiy ma'lumotlarga qo'shimcha konnotativ ma'nolar ifodalansa, o'quvchiga ushbu ma'nolarni tushunishga yordam beradi.

Kommunikativ tarjima uslubida asliyatning aniq matniy ma'nesi tarjima qilinib, bu usulda tarjima mazmuni va tili o'quvchiga tushunarli bo'ladi. Kommunikativ tarjima tarjimon o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq ta'sir

ko'rsatadi. Kommunikativ tarjimada asliyat tiliga yondashish kuzatiladi; unda erkin muloqotga kirishish maqsad qilinadi. Tarjima jarayonida tarjima tili o'quvchisiga o'z tili va madaniyati uchun noaniq bo'lgan xorijiy so'zlar va ular natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar yoki noaniqliklarni bartaraf etishga xarakat qilinadi. Noaniq va tushunarsiz terminlarga nisyuanan tarjimon bag'rikenglik bilan yondashadi. Bunda ma'lumotning kontentidan ko'ra uning tasir kuchiga urg'u beriladi. Tarjima ravon, oddiy, aniq, to'g'ri bo'lib, talqin qilinishi qiyin bo'lgan qismlarda ko'proq umumiy terminlar qo'llanadi. P.N'yumarkning ta'kidicha, kommunikativ tarjima semantik tarjimaga nisbatan yaxshiroq samara beradi . Olim yana shuni takidlaydiki, semantik tarjimada asliyat matnini takomillashtirish yoki xatolarni to'g'rakashga imkoniyat bo'lmaydi, kommunikativ tarjimada esa bu jarayonlar osonroq kechadi, chunki tarjimonda mantiqni to'g'ri talqin qilish, kinoyali gaplar yoki jargonlarni aniqlash, g'aliz jumlalarni to'laqonli strukturalarga almashtirish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish, takrorlarni kamaytirish va uslubiy jihatdan noto'g'ri bo'lgan yozma matnlarni tartibga keltirish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

Nazmiy tarjima she'rlar va she'riy asarlarni nasriy tarjima qilishda qo'llanadi. Bunda, odatda, she'riy to'rtliklar paragraflarga aylanadi, she'riy punktuatsiya tanishtiriladi, asliyat metaforalari va madaniy birliklari saqlab qolinadi, ohang ta'siri qayta yaratiladi. O'quvchi ekvivalent ta'sirni his qilmasdan matn ma'nosini o'qiy oladi . Nazmiy tarjimalar aksariyat hollarda variantlari bilan parallel ravishda nashr qilinadi. So'zlar birma-bir taqqoslanadi.

Fonemik tarjimada asliyat tilini tarjima tilida aynan asliyatdagidek qayta yaratish ko'zda tutiladi. Fonemik tarjimada ekvivalentlikning bosh xossasi asliyat va tarjima tili fonemik birliklarining bir xil fonetik mazmunga aloqadorligida ko'rindi. J.Katfordning yondashuviga ko'ra, "tarjimaning boshqa sathlari singari tarjimon shakliy moslashuv bilan tarjima ekvivalentligini farqlay bilishi lozim. Fonemik tarjima butun tarjimaga parallel ravishda ko'riladi, chunki asliyat

tilidagi fonemik birlik tarjima tilida bir yoki birdan ortiq fonemik ekvivalent birlikka ega bo'lishi mumkin". Fonemik tarjima asliyat tili birliklarini tarjima tilining shakliy birliklariga o'girish, qatorlarni o'zgartirish, ma'no xususiyatlarini qayta guruhlash va qayta shakllantirish kabi funktsiyalarni o'z ichiga oladi. Fonemik tarjima aktyor va taqlidchilar tomonidan xorijiy so'z, shevaga xos so'z, shuningdek, so'zlashuvga xos so'zlarni talaffuz qilishda keng foydalaniladi.

Rasmiy matnlar tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublari. Gaplarni birma-bir tarjima qilish uslubida asliyat tili grammatik strukturasi uning tarjima tilidagi eng yaqin ekvivalenti bilan almashtiriladi, ammo leksik birliklar kontekst nuqtai nazaridan birma-bir tarjima qilinadi. Ushbu tarjima usuli tarjimashunoslikda ko'p asrlardan buyon turli munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bunga sabab gapma-gap tarjima va so'zma-so'z tarjima uslublari o'z vazifalari jihatidan bir-biriga o'xshab ketadi. Biroq ularning o'ziga xos farqlari mavjud bo'lib, bu faqlarni ko'rsatib berish tarjimashunos olimlarning vazifasi hisoblanadi. So'zma-so'z tarjimada matndagi so'zlarni birma-bir tarjima qilishga e'tibor qaratilib, bu ko'proq turli soha lug'atlarni tuzishda samarali hisoblanadi. Chunki lug'atlarda kontekstga e'tibor qaratish imkoniyati kam bo'ladi. Gapma-gap tarjimada esa matndagi gaplar, abzatslar birma-bir tarjima qilinib, albatta kontekst inobatga olinadi. J.Katford gapma-gap tarjimaga tarjimashunoslikning birligi sifatida munosabat bildiradi. Uning ta'kidlashicha, "so'zma-so'z tarjima gapma-gap tarjimaning boshlang'ich nuqtasi xisoblanadi, shuningdek, u tarjima tili grammatikasiga moslashishni talab qiladi hamda tarjima matnidagi til birliklari guruhma-guruh yoki paragrafma-paragraf ekvivalentlikda namoyon bo'ladi". Shunday qilib, ushbu termin nisbiy ma'noga ega bo'lib, har qanday asliyat tilida ierarxik tuzilish darajalari bo'lgani kabi tarjima erkinligi va badiiylik darajalari ham mavjud bo'ladi. Tarjima usuli sifatija gapma-gap tarjimaning aniq o'z foydalanish funktsiyalari mavjud bo'lib, u tom ma'noda tarjimaga gapma-gap yondashuv hisoblanadi. Jumladan, texnik matnlarning barcha turlarini tarjima qilish uchun umumiylashtirish foydalaniladi. Shuningdek, boshqa

kontekstlarda til o'rganuvchilarga tarjima tilining tuzilmalari xaqida foydali tushunchalarni taqdim etadi.

Asliyatga sodiq holda tarjima uslubida asliyat matnidagi ma'no va ta'sir tarjima tili va madaniyatiga qarshi qo'ymasdan ravon olib o'tish maqsad qilinadi. Ushbu uslubda muallif g'oyasi va asliyat matni funktsiyalari tarjima tili o'quvchisiga tushunarli holatda olib o'tish rejalashtiriladi. B.Hatimning fikricha, "asliyatga sodiqlik tamoyili tarjimon uchun tarjima tilida o'xhash matn yaratish uchun asliyat matnini to'g'ridan-to'g'ri ifodalash funktsiyasi hisoblanadi. Tarjimon har bir so'zni alohida tarjima qiladi, keyin tarjima tili strukturasiga moslashtirish uchun grammatik konstruktsiya qayta yaratiladi". Shuningdek, asliyatga sodiq holda tarjima uslubi tarjimada qisqa sodda gaplar anglatgan ma'noni ifodalash uchun samarali uslub hisoblanadi. Bu uslubda murakkab gaplar tarjimasida kamchiliklarga yo'l qo'yilgandek tuyuladi, chunki matn strukturasidagi individual so'zlarga qarganda butun matndagi strukturada ma'no mujassamlashgan bo'ladi.

Sharhlash (interpretation)da esa mavzu sharhlanadi va qabul qiluvchiga osonroq bo'lishi uchun matn qayta yoziladi. Ushbu tarjima uslubi tarjimon tomonidan tanlanganda tarjima matnining uslubi, mohiyati, o'ziga xos jihatlari kabilar e'tiborga olinadi.

Ilmiy uslubga xos matnlar tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublar. Ilmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilishda asosiy vazifa asliyat matnida tasvirlangan fikr yoki vaziyatni aniqlashdir. To'g'ri tarjima qilish uchun tarjimon konteksti tushunishi kerak. Tarjimon ilmiy uslubdagi atamalarni yaxshi bilishi va mavzuni etarli darajada tushunishi kerak. Tarjimon, shuningdek, matnni mutaxassisga maqbul bo'lishi uchun ilmiy uslubdagi materiallarning stilistik talablarini bilishi va ularga rioya qilishi kutiladi.

Ilmiy uslubning asosiy vazifasi axborot berishdir. Mantiqiy ma'lumotlarni etkazish, uning yangiligi va ahamiyatini isbotlash - olim, ilmiy yoki texnik muallifning asosiy maqsadi xisoblanadi. Bu jihat bevosita tarjimon funktsiyasiga

ham ko'chadi. Mazkur uslubdagi matnar ilm-fan, gumanitar fanlar, kabi professional sohalarida qo'llaniladi.

Ilmiy-texnik uslub quyidagi kichik uslublarni o'z ichiga oladi: ilmiy, texnik, o'quv, ilmiy-ommabop uslublar. Kichik uslublar quyidagi janrlarga bo'linadi: monografiya, o'quv qo'llanma, darslik, maqola, ma'ruza, texnik tavsif va boshqalar.

Ilmiy-texnik uslubning o'ziga xos xususiyatlari lo'ndalik, aniq mantiq, matnning kompressiya xususiyatlari, shaxssizlik, rasmiylik o'z ichiga oladi.

Aniq va lo'ndalik ilmiy-texnikaviy matnning asosiy xususiyati bo'lib, tarjimada unga qat'iy rioya qilish kerak. Tarjimon matn mazmunini aniq ko'rsatish uchun nimani tarjima qilayotganidan to'liq xabardor bo'lishi kerak. Uslub xususiyatlarga alohida e'tibor berilishi kerak. Aniq tarjima qilish uchun terminning ekvivalentini bilishning o'zu etarli emas. Bu atama bilan ko'rsatilgan tushunchaning boshqa tushunchalarga nisbatan aniq o'rmini bilish juda muhimdir. Shu sababli, fan va texnologiyalar sohasidagi tarjimonlar chet tili va ma'lum bir fan sohasiga ixtisoslashgan bo'lishi kerak. Ushbu tarjimonlarning ikki turi mavjud: tilshunos tarjimonlar va muhandislik tarjimonlari.

Ilmiy uslubdagi matnlar tarjimasida odatda gapma-gap tarjima, moslashtirish, asliyatga sodiq xolda tarjima, kommunikativ tarjima uslublari; kompressiya, eksplikatsiya, ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik kabi tarjima usullar qo'llanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tarjima uslubi deganda nimani tushunasiz?
2. Badiiy tarjimada qanday tarjima uslublari qo'llanadi?
3. Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasida qanday tarjima uslublari qo'llanadi?
4. Ilmiy-texnikaviy matnlarni chet tiliga o'girishda qanday tarjima uslublari qo'llanadi?
5. Tarjimashunoslik tarihida tarjima uslublari ilk bor kim tomonidan qo'llangan?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

3-MAVZU:

TARJIMA UAULLARI VA ULARNING TIL SATHLARI

BO'YICHA TASNIFI

REJA:

1. *Tarjima usuli tushunchasining mohiyati*
2. *Fonetik tarjima usullari*
3. *Morfologik tarjima usullari*
4. *Sintaktik tarjima usullari*
5. *Leksik tarjima usullari*

Tayanch so‘z va iboralar: *tarjima, tarjima usuli, lison, til stahi, fonetika, morfologiya, sintaktis, leksikologiya, stilistika.*

Tarjima usuli tushunchasining mohiyati. Tarjima usuli, tarjima texnikasi, tarjima protsedurasi, tarjima transformatsiyasi tarjimashunoslikda bir

tushunchanining turli nomlanishi bo'lib, P.Nyumark, A.Hurtadolar ta'kidlaganidek, matndagi kichik leksik birliklar, ya'ni so'z, qo'shma so'z, ibora, maqol, matal va hakozolarni tarjima tiliga o'girish uchun qo'llanadi.

N.Qambarovning tarjima transformatsiyalariga sabab bo'ladigan "shaffof so'zlar" deb nomlanuvchi birliklarni tarjima qilish muammolari, transformatsiya turlari va usullari hamda ularni tarjima qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Olim "shaffof" so'zlarni tarjima qilishda ularning ma'nolarini aniqlashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, so'z ma'nolarini rivojlantirish, antonimik tarjima kabi usullardan foydalanishni tavsiya etadi. Bundan tashqari, bunday so'zlarni tarjima qilish uchun tarjimon barcha transformatsiya turlaridan xabardor bo'lishi, muayyan tajribaga ega bo'lishi, o'zi tarjima qilayotgan matnni his etishi, so'zlar valentligi haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, tarjima qilinayotgan so'zning nima uchun qo'llanganligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi, adekvatlikka erishish yo'llarini bilishi kabilarni ham taklif etadi.

L.Barxudarov tarjima jarayonida qo'llanadigan transformatsiyalarni to'rt turga bo'ladi: 1) joyni o'zgartirish; 2) so'z almashtirish; 3) so'z qo'shish; 4) so'zni tushirib qoldirish . N.Qambarov tarjima transformatsiyalaridan foydalanish salmog'i asliyat va tarjima tillarining bir - biriga qardosh yoki qardosh emasligiga bog'liqligi, ularni tarjima munosabati bilan kontaktga kirgan ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, pragmatik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi borasida o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Olimning fikricha, tarjima jarayonida eng ko'p qo'llanadigan tarjima transformatsiyalari: so'z tartibining o'zgarishi, so'z qo'shish, so'zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kal'kalash, tasviriy tarjima kabi usullar hisoblanadi. Transformatsiyalar sonining kam bo'lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko'pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi . Biz ham shu fikrga qo'shilamiz, chunki tillarning o'zaro farqli jihatlari salmoqli bo'lgan holatlarda tarjima transformatsiyalari faol qo'llaniladi.

Bu nafaqat tillar o'rtasidagi farqlar, balki madaniyatlar o'rtasidagi farqli jihatlar bilan ham bog'liq. Shuningdek, hajviy matnlarda tasviriy ifodaviylik va milliy-madaniy leksik birliklarni tarjima qilishda faol qo'llanadigan yana bir nechta transformatsiyalar ham ahamiyatli bo'lib, ular haqida keyingi o'rnlarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Fonetik tarjima usullari. Fonetik transformatsiyalar asliyat matnida fonetik va fonologik birliklarni tarjima tiliga olib o'tish maqsadida qo'llanadi. Transkriptsiyada asliyat tilidagi so'z uning bevosita talaffuz shakliga ko'ra tarjima tilida qayta tiklanadi. M: sweater – sviter. Transliteratsiya usulida asliyat tilidagi so'z uning grafik shakliga ko'ra tarjima tilida qayta yaratiladi. M: sari – sari. Kalkalash asliyat leksik birliklarini uning tarkibiy qismi – morfema yoki so'zning leksik muqobilini tarjima tilida berilishidir. Bunda so'zning tovush tarkibi emas, balki so'zning yoki iboraning tarkibiy qismlari (morfema) tarjima tilida berilishi nazarda tutiladi. Madaniyatlararo muloqotda so'z transliteratsiyasi o'rniga tarjima usuli sifatida ma'lum bo'lgan kalkalash yordamida so'z tarkibidagi morfemalar hamda iboralar tarkibidagi leksemalar boshqa tillardan o'zlashtirishda keng tarqalgan.

Kalkalashning transkriptsiyadan farqi mavjud. Bu so'zni bir tildan ikkinichi tilga oddiy yo'l, ya'ni mexanik yo'l bilan yetkazib qo'yish emas. Kalkalashdan transformatsiyaning bir ko'rinishi sifatida foydalanishga to'g'ri keladigan hollarni kuzatish mumkin. Bu usul birinchi navbatda shakllarning o'zgarishi, iboradagi so'zlar sonining o'zgarishi, affikslar, so'z tartibining o'zgarishi, so'zlarning morfologik va sintaktik maqomidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi mixed laws – aralash qonunlar, Supreme Court – Oliy sud birikmalarida transliteratsiya yoki transkriptsiya emas, aynan iboraning ma'nosi so'zma-so'z tarjima qilingan, ya'ni kalkalash usuli bilan tarjima qilingan.

Morfologik tarjima usullari. Morfologik tarjima usullari asliyat matnidagi morfologik birliklarni tarjima tiliga olib o'tishda qo'llanadi. Transpozitsiyalar usulida so'z turkumining o'zgarishi, ya'ni fe'l otga, ot

predlogga o'zgarishi mumkin. Tarjima jarayonida ingliz tilidagi fe'l o'zbek tilida otga o'zgarishi kabi holatlar ham kuzatiladi. Bu jarayon asliyat tilidan tarjima tiliga o'zgarishdagi grammatik o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, birlik shaklning ko'plikka o'zgarishi kabi grammatik xususiyat, o'ziga xos asliyat tili strukturasi sifatida tarjima tilida mavjud bo'lmasa, uni muayyan ko'rsatkich orqali o'zgartirish talab qilinadi. Ayrim hollarda asliyat tilidagi fe'l tarjima tilida otga o'zgaradi, asliyatda ko'plik shaklidagi ot birlikka o'zgaradi va boshqalar. M: fish – baliqlar. Qismlarga ajratish usulida asliyat tilidagi tushunchani tarjima tilidagi kengroq ma'noga ega tushuncha bilan ifodalash. M: O'zbek tilida “kamondan o'q uzish” ingliz tilidagi “archery” so'zini qismlarga ajralish hodisasidir. Kengaytirish usulida tarjima tilida sintaktik va leksik bo'shliqlarni yo'qotish uchun ko'proq ma'noga ega tushunchalardan foydalanishdir. M: He talked himself out of a job – U o'zining ishsiz yurganligini gapirdi. Bu yerda o'zbek tilidagi tarjimaga “yurganligini” so'zini qo'shib sintaktik bo'shliq bartaraf etilgan.

Sintaktik tarjima usullari. Sintaktik tarjima usullari tarjima jarayonida sintaktik birlıklarni tarjima tiliga olib o'tish maqsadida qo'llanadi. Sintaktik tarjima usullariga quyidagilar kiradi:

Gaplarni birma-bir tarjima qilish usulida so'zlar, gaplar so'zma-so'z tarjima qilinadi, grammatik struktura saqlab qolinadi. M: I have talked to my friend – Men do'stim bilan suhbatlashdim, It goes without saying – O'z-o'zidan ma'lum.

Kengaytirish usulida tarjima tilida sintaktik va leksik bo'shliqlarni yo'qotish uchun ko'proq ma'noga ega tushunchalardan foydalanishdir. M: He talked himself out of a job – U o'zining ishsiz yurganligini gapirdi. Bu yerda o'zbek tilidagi tarjimaga “yurganligini” so'zini qo'shib sintaktik bo'shliq bartaraf etilgan.

Kompressiya usulida tilshunoslikda lisoniy tejamkorlik tushunchasiga yaqin bo'lib, ifodani kamroq leksik birliklar bilan tushuntirishga mo'ljallanadi. M: Well price ourselves out of the market - Bozor narxida to'lamaymiz.

So'z tartibini o'zgartirish usulida biror gap yoki paragrafdagi so'z yoki iborani boshqa joyga olib o'tish va tarjima tilida asliyatdagidek talqin etish nazarda tutiladi. M: Pack separately ... for convenient - nazorat qilishga qulay bo'lishi uchun alohida – alohida qilib joyla.

Antonomik tarjima usulda asliyatdagি tasdiq shaklidagi fikr tarjima tilida inkor shaklda yoki aksincha berilishini ifodalaydi. M: take it easy – hayajonlanmang.

So'z qo'shish usulida asliyat matni tilidagi grammatik va semantik komponentlarning shaklan ifodalanmaslik holatlarida qo'llanadi. M: He could not remember this man who he had seen – U yaqindagina ko'rghan odamini eslay olmadi.

So'z tushirib qoldirish (Omission). Bu usul ikki tilning ma'lum bir shakllarining grammatik qisqarish hodisasi talab etilganda qo'llanadi. M: He bowed his head – U boshini egdi.

Leksik tarjima usullari. Leksik tarjima usullari asliyat matnida qo'llangan leksik birliklar va ularning ma'nolarini tarjima tiliga olib o'tishda qo'llanadi. Leksik tarjima usullariga quyidagilar kiradi:

So'z o'zlashtirish usulida tarjima jarayonida bir so'z bir tildan boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri olib o'tiladi. Ingliz tilidagi bulldozer so'zi rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan.

Ekvivalentlik usulida xuddi shunday vaziyat uchun butunlay boshqa muqobil ibora ishlatiladi, ya'ni maqollar yoki idiomatik ifoda vositalari bularga misol bo'la oladi. M: To cross the floor of the House - Bir partiyadan boshqa partiyaga o'tib ketmoq.

Madaniy ekvivalentlik usulida tarjimon asliyat tilidagi madaniy so'zni tarjima tilidagi madaniy so'z bilan almashtiradi. M: as strong as a horse – filday baquvvat.

Tasviriy ekvivalentlik usulida leksik birlikni bildiruvchi so'zning ma'nosi bir necha so'zlarda tushuntiriladi. M: petrol, gasoline station – avtomobilgarga yoqilg'i quyish shahobchasi.

Funktsional ekvivalentlik usulida tarjima tili leksikasida so'z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so'z bilan almashtiriladi. M: sheriff – mingboshi.

Ma'noni ochib berish usulida asliyatdagi leksik birlik tarjima matnida to'liqroq sharh yoki aniqlashtiruvchi ma'noli so'z birikmasi bilan almashtiriladi. M: conservationalist – atrof-muhitni himoya qilish tarafdori.

Yashirin ma'no berish usulida asliyat matnidagi eksplitsit ma'lumotni yoritib berish uchun vaziyatdan foydalanib, yashirin ma'noni berishdir. Bu usul tarjimaning pragmatik aspektining bosh mezoni hisoblanadi. M: You should obey my order – Qonun oldida hamma barobar.

Umumlashtirish usulida asliyatdagi tor ma'noli so'zni tarjima tilidagi keng, umumlashtiruvchi so'z bilan almashtirishni ko'zda tutadi. M: He visits me practically every weekend – U menikiga qariyb har haftada keladi.

Tafsillash usulida asliyatda keng ma'noli so'z yoki so'z birikmasini tarjima matnida ancha konkret mazmunga ega so'z bilan almashtirish. M: meal – nonushta, tushlik, kechki ovqat kabilar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tarjima usuli deganda nimani tushinasiz?
2. Tarjimada fonetik birliklarni xorijiy tilga o'girishda qaysi tarjima usullari qo'llanadi?
3. Morfologik tarjima usullariga nimalar kiradi?
4. Sintaktik tarjima usullari kategoriyasini aniqlang.

5. Qaysi tarjima usullari leksik tarjima usullari xisoblanadi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1- AMALIY MASHG'ULOT:

O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA BADIY TARJIMA MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH

REJA:

Tayanch tushunchalar: Tarjima, asliyat matni, tarjima matni, badiy-estetik ma'no, lisoniy xususiyat, nolisoniy xususiyat, ma'no, kontekst, equivalentlik, funksional ekvivalentlik, muqobillik.

Topshiriqlar:

1-vazifa. Badiy tarjimaning asosiy xususiyatlarini bayon qiling.

2-vazifa. Badiy tarjimaning fonetik va morfologik tahriri.

Badiy tarjimada yuzagi keladigan asosiy fonetik g'alizliklar nimalar? Badiy matn tarjimasidagi asosiy morfologik g'alizliklar qaysilar?

3-vazifa. Badiy tarjima tahririda fonetik va morfologik transformatsiyalar mohiyatini tushuntiring

4-vazifa. Quyidagi matnni o'qing. Berilgan matning uslubini, janriy xususiyatlari va qisqacha mazmunini aniqlang. Badiy matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling.

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham' yoqdi va bekning to'shagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochilg'anidan, sham' yoqilib, o'rin yozilg'anidan go'yo xabarsiz kabi ustung'a suyalg'ancha qotib turar yedi.

— O’rningizni yozdim, bek.

Otabek bu so’z bilan hujraga kirdi va borib to’shagi yonig’a o’lturdi. Hasanali bekning yeshinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib yoqilg’an sham’ni o’zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabek to’shagi yonig’a o’lturdida, yana o’ylab qoldi... Otabek bir necha kunlardan beri Hasanalining ko’ziga boshqacha ko’rinar edi.

5-vazifa. Berilgan matnni o’qing va quyidagi tarjima uslublarining qaysilariga ko’ra tarjimaga yondashuv amalga oshirilishini aniqlang: kommunikativ tarjima, semantik tarjima, idiomatik tarjima, ijodiy tarjima, erkin tarjima.

Mashinada vodiy tomonga ketyapmiz. Yosh yozuvchi ukalarim bilan ba’zan shunaqa sayohatga chiqadigan odatimiz bor.

O’zim rul boshqarib kelyapman. Yonimda nihoyatda chaqqon, ziyrak, hech narsani nazaridan qochirmaydigan, goho kuldiraman deb gapning orqa-o’ngiga qaramay aytvoradigan Anvar Eshonov. Orqa o’rindiqda shu vodiyda tug’ilgan, birinchi hikoyalarini shu yerda yozib e’lon qilgan Xudoyberdi To’xtaboev bilan ikki hikoyalar kitobini, «Sevgim — sevgilim» qissasini nashr qilgan, g’oyatda odobli, yosh bo’lishiga qaramay ko’pchilikning tavajjuhini o’ziga qaratgan O’lmas Umarbekov o’tirihti.

Boya yo’lga chiqayotganimizda u, tog’dan ketmaymizmi, deb so’ragan edi. Unga hozircha tog’da vodiyga xos hech narsa yo’q, hammayoq temir-tersak, texnika, ekskavatoru buldozerlar tosh surib yo’l ochyapti. Men sizlarni otabobolarimiz qatnagan yo’ldan olib kelyapman, degan edim.

— Otabek yurgan yo’ldanmi? — deb takror so’radi O’lmas.

Ko’pchilikni Otabek yurgan yo’l qiziqtiradi. O’sha yo’lni ko’rgilari keladi.

— Otabek yurgan yo’l manavi tog’lar orasida, — deyman ularga. — U yo’ldan yo’ otta, yo’ eshak minib o’tish mumkin. Biz Kumushbibi ota-onalari bilan aravada Toshkentga borgan yo’lni yoqalab kelyapmiz.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimada qo'llangan tarjima uslublarining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Badiiy tarjimada yuzaga keladigan lingvistik muammolarni aniqlang va ularning tarjima qilish usullarini tushuntirib bering.
3. Tarjima tahliliga tortilgan matnlarda semantic uslub orqali tarjima qilingan jumalalarini bayon qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

8. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
9. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
10. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
11. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
12. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
13. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
14. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

2-AMALIY MASHG'ULOT:
O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA PUBLITSISTIK
USLUBDAGI MATNLAR TARJIMASIDAGI
MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH

Topshiriqlar:

Tayanch tushunchalar: tarjima, publitsistik matn, gazeta, jurnal, ijtimoiy saytlar materiallari, asliyat matn, tarjima matn, tarjima uslubi.

1-vazifa. Publitsistik matnlar tarjimasini asosiy mazmun-mohiyatini nimadan iborat?

2-vazifa. Publitsistik matnlar tarjimasida asosan qaysi tarjima uslublari qo'llandi?

3-vazifa. Publitsistik matnlar tarjimasida quyidagi tarjima usullaridan qaysi biri faol qo'llanadi: inversiya, moslashtirish, naturalizatsiya, so'z o'zlashtirish, eksplikatsiya, ekvivalenktlik?

4-vazifa. Quyidagi journalistik maqolani o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling va unda qo'llangan tarjima uslub va usullarini tahlil qiling.

Art Week Style.uz – 2012 doirasida Yoshlar ijod saroyining birinchi qavatidagi an'anaviy o'zbek san'ati, dizayni va modasi ko'rgazmasida bu yil bo'lib otgan "Navqiron O'zbekiston" an'anaviy va zamonaviy san'at festivali ishtirokchilarining eng sara ijod mahsullari bilan tanishish imkonи tug'ildi. Ikkinci qavatda esa zamonaviy moda va dizayn san'atining yetakchi brendlari o'z mahsulotlarini namoyish etishdi. Turli yo'nalishdagi ijod bir – biriga

bog’langan holda umumiy g’oyaviy uyg’unlik, yagona madaniy hududni yuzaga keltirdi.

Bu yilgi ko’rgazmaning O’zbekiston an’anaviy san’atiga bag’ishlangan qismi Yoshlar ijod saroyining foyesidan joy oldi. Bu asosan ‘Navqiron O’zbekiston – 2012” an’anaviy va zamonaviy san’at festivalida ishtirok etgan yosh ustalar va rassomlar tomonidan yaratilgan O’zbekiston bezakli amaliy san’atining turli ko’rinishdagi ekspozitsiyasidir. Ekspozitsiyada “Navqiron O’zbekiston – 2012” festivalidan yodimizda qolgan ajoyib shakl va g’ayrioddiy uslublar uyg’unligidagi an’anaviy va noan’anaviy kulolchilik, yosh mualliflarning miniatyura san’ati, yog’och o’ymokorligi, zardo’zlik, kashtachilik, gilamlar, o’zbek zargarlari ishlari, milliy qo’g’irchoqlar, qovoq dekorativ bezagi, installyatsiya va boshqa ko’plab san’at asari darajasidagi buyumlar namoyish etildi.

5-vazifa. Quyidagi jurnalistik maqolani o’zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling va unda qo’llangan tarjima uslub va usullarini tahlil qiling.

Ingrid Jalneva, jurnalist (Slovakiya):

– Men O’zbekistonning tarixiy shaharlariga o’tgan yili sayohat qilganman, ko’hnalik va an’anaviylikka guvoh bo’lganman. Bugun esa bu o’lkani zamonaviy davlat sifatida ko’ryapman. Ushbu ko’rgazmada O’zbekiston haqida so’zlovchi an’anaviy san’atga guvoh bo’ldim. Shuningdek, ham o’zbekcha, ham xorijiy zamonaviy san’at mavjudligi manzur bo’ldi.

Ko’rgazmada namoyish etilgan o’zbek hunarmandchiligining an’anaviy ko’rinishlarida asrlar davomida saqlangan badiy urf– odatlarning o’ziga xosligini his qilish mumkin. Shu bilan birga, yosh mualliflar ishlarida zamonaviylik tuy’gusini baxsh etuvchi badiy fikrlashni his qilmaslik mumkin emas. Bularning bari zardo’zlik san’atini stanoklashtirish, noan’anaviy kulolchilik, miniatURA uslubida yaratilgan zamonaviy syujetlar, zargarlik buyumlari shaklda o’z ifodasini topmoqda.

Ko'rgazmada taqdim etilgan asarlar yuqori darajadagi mahorat bilan ishlangani, milliy badiiy hunarmandchilik hamda zamonaviy bezakli amaliy san'atning tarixiy an'analari yaxshi o'zlashtirilgani bilan ajralib turadi. Ular tasviriy va bezakli san'atning turli yonalishlarida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston zamonaviy ijodkor yoshlarining ulkan ijodiy salohiyatidan kichik namunagina xolos.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Publitsistik uslubdagi matnlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O'zbek tilidan ingliz tiliga publitsistik uslubdagi matnlarni tarjima qilishda asosan qaysi tarjima uslublari qo'llanadi?
3. Publitsistik uslubdagi matnlar tarjimasida qanday leksik va sintaktik tarjima usullari faol qo'llanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

3-AMALIY MASHG‘ULOT.

O’ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA RASMIY USLUBDAGI MATNLAR TARJIMASIDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH

Tayanch tushunchalar: *Tarjima, rasmiy uslub, tarjima, asliyat matni, tarjima matni, leksik-semantik moslashuv, leksik usullar, sintaktik muvofiqlik, so’z o’zlashtirish, implikatsiya, eksplikatsiya.*

Topshiriqlar:

1-vazifa. Rasmiy uslubdagi matnlarga nimalar kiradi?

2-vazifa. Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasida qo’llanadigan tarjima uslublari qaysilar?

3-vazifa. Quyidagi leksik usullar va ularning asosiy mazmun-mohiyatini bayon qiling: funktsional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, kal’kalash, so’z o’zlashtirish, tafsillash.

4-vazifa. Quyidagi rasmiy uslubga oid matn o’qing va uni o’zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnni o’zbek tilidan ingliz tiliga funktsional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, kalkalash, so’z o’zlashtirish, tafsillash transformatsiyalaridan foydalanib tarjima qiling.

AQSh elchisi orinbosari AQSh va mezbon mamlakat o’rtasidagi hamkorlik va samarali munosabatlarni rivojlantirish maqsadida AQShning turli idoralari o’rtasidagi aloqalarni ta’milagan holda elchi nomidan elchixonaning kundalik faoliyatiga doir masalalarni boshqarib turadi.

